

## “Dekan va yoshlar muloqoti”

2018 yil 5 may kuni soat 19:00da 3-TTJda “Iqtisodiyot va menejment” fakulteti dekani O.Kucharov, TTJ direktori Z.Yuliev, ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha dekan o’rinbosari J.Turdiyev, dekan o’rinbosari U.Alimov, 3-TTJ komendandi I.Qurbonovlar hamda 24 nafar talabalar ishtirokida ochiq muloqot bo’lib o’tdi. Tadbir davomida fakultet dekani O.Kucharov talabalar bilan suhbat jarayonida mavjud muammolar yashash sharoitlarini yaxshilash bo’yicha takliflari va murojaatlari eshitildi va talabalarni yashash xonalarini toza-ozoda saqlashi, shaxsiy gigienaga rioya etishi xususida, shuningdek, o’zaro muomala madaniyati kattalarga hurmatda bo’lish, kichiklarga izzatda bo’lish kabi qadriyatlarimizni e’zozlash to’g’risida hayotiy misollar bilan o’z fikr mulohazalarini bildirib o’tdi. Shuningdek, tadbirda bugungi kunda O’zbekistonda sodir bo’layotgan o’zgarishlar, islohotlarning mazmun-mohiyati, tinchlik va osoyishtalikning qadriga yetish, uning rivojiga hammaning o’z hissasini qo’shishi ham qarz, ham farz ekanligi to’g’risida fikr-mulohazalar bildirib o’tdi.



**“I va M” fakulteti dekani o’rinbosari**

**J.Turdiyev**